



## SUNʻIY INTELLEKT FENOMENI: ZAMONAVIY JAMIYATDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK YONDASHUV

**Naimov Abror Anvar oʻgʻli**

*Buxoro viloyati ichki ishlar organi xodimi*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada sunʻiy intellekt fenomenining zamonaviy jamiyat hayotiga koʻrsatadigan ijtimoiy va psixologik taʼsiri tahlil qilinadi. Tadqiqotda sunʻiy intellekt texnologiyalarining inson tafakkuri, ijtimoiy muloqot va axborot isteʼmoli jarayoniga taʼsiri oʻrganildi. Natijalar zamonaviy texnologiyalar inson hayotini yengillashtirishi bilan birga, psixologik qaramlik, ijtimoiy faoliyatning qisqarishi kabi omillarni kuchaytirishi mumkinligini koʻrsatdi.*

**Аннотация:** *В данной научной статье анализируется социальное и психологическое влияние феномена искусственного интеллекта на современное общество. Исследуется его воздействие на мышление человека, социальное взаимодействие и потребление информации. Результаты показывают, что современные технологии облегчают жизнь, но одновременно могут усиливать психологическую зависимость и снижать уровень социального участия.*

**Abstract:** *This scientific article analyzes the social and psychological impact of the phenomenon of artificial intelligence on modern society. The study examines its influence on human thinking, social interaction, and information consumption. The results show that while modern technologies facilitate human life, they may simultaneously increase psychological dependence and reduce levels of social engagement.*

**Kalit soʻzlar:** *sunʻiy intellekt, psixologiya, jamiyat, texnologiya, raqamli tafakkur, axborot isteʼmoli.*

**Ключевые слова:** *искусственный интеллект, психология, общество, технологии, цифровое мышление, информационное потребление.*

**Keywords:** *artificial intelligence, psychology, society, technology, digital thinking, information consumption.*

“Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sunʻiy intellekt davriga dadil qadam qoʻymoqda. Qaysi soha boʻlmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki boʻladi” – dedi davlatimiz rahbari. XXI asrda texnologik taraqqiyotning eng muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida sunʻiy intellekt koʻrilmoqda. Sunʻiy intellekt (AI) tushunchasi ilk bor 1956-yilda Dartmut konferensiyasida John McCarthy tomonidan ilmiy atama sifatida kiritilgan. Avval nazariy yoʻnalish boʻlgan sunʻiy intellekt, vaqt oʻtishi bilan dasturlash, matematika va nevrologiya sohalaridagi rivojlanishlar bilan kuchaydi. 1997-yilda IBMning Deep Blue superkompyuteri shaxmat boʻyicha jahon chempioni Garri Kasparovni magʻlub etishi sunʻiy intellekt tarixidagi muhim burilish nuqtasiga aylandi.

Bugun esa sunʻiy intellekt nafaqat ilmiy muhitda, balki kundalik hayotimizda – smartfonlardan tibbiyotgacha, moliya va transport sohalarigacha keng qoʻllanilmoqda.

Sun'iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Olimlar sun'iy intellekt bilan tajriba o'tkazishga ishtiyoq bilan qarashsa-da, ko'p odamlar bu hodisadan ehtiyot bo'lishadi. Hatto Tesla rahbari Elon Mask ham buni insoniyat uchun "asosiy tahdid" va urush va ishsizlikning mumkin manbasi deb atagan.

U inson hayotining deyarli barcha jabhalariga kirib bormoqda: ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish, boshqaruv, kommunikatsiya va hatto kundalik faoliyatga. Har qancha e'tiroz va tanqidlarga qaramay sun'iy intellect rivojlanishdan, odamlarga yordam berishdan to'xtamayapti. Ayniqsa, tibbiyotda uning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Endilikda robotlar nisbatan murakkab jarrohlik amaliyotlarini ham uddasidan chiqishyapti. Robot-shifokorlarning tibbiyot xodimlari bilan o'ziga xos hamkorligi samaradorlikni ancha oshirdi.

Medtronis kompaniyasi esa IBM bilan hamkorlikda qandli diabet kasalligi bilan og'riqan bemorlar uchun maxsus dastur ishlab chiqmoqda. Mazkur dasturiy ta'minot qon tarkibidagi qand miqdorining favqulodda tushib ketishini 3 soat avval aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun shu kasallikka chalingan 600 ta anonim bemorlarning tibbiy ma'lumotlari o'rganib chiqildi. Bu endi odamlar o'z salomatliklarini mobil qurilmalardagi maxsus dasturlar orqali muntazam nazorat qilib borish imkoniga ega bo'lishadi deganidir.

Sun'iy intellektning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va psixologik omillarni ham tubdan o'zgartirmoqda. Shu sababli uning jamiyatdagi o'rni va inson ruhiy hayotiga ta'sirini chuqur ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Sun'iy intellekt insonning aqliy faoliyatini texnik vositalar yordamida modellashtiruvchi tizimdir. U algoritmlar, neyron tarmoqlar, katta ma'lumotlar bazasi va mashinali o'qitish tamoyillariga asoslanadi. Bugungi kunda ChatGPT, Gemini, DeepMind, Copilot kabi intellektual tizimlar katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, matn yaratish, qaror qabul qilish va ijodiy fikr yuritish kabi murakkab funksiyalarni bajara oladi. Bu esa sun'iy intellektni global innovatsiyaning markaziga aylantirdi.

Sun'iy intellekt jamiyatning mehnat bozori, ijtimoiy muloqot, ta'lim va boshqaruv tizimlariga sezilarli o'zgarishlar kiritmoqda. Ko'plab jarayonlar avtomatlashtirilayotgani sababli an'anaviy kasblar yo'qolib, yangi zamonaviy kasblar yuzaga kelmoqda. Aholining texnologiyaga qaramligi ortib bormoqda, bu esa ijtimoiy muhitdagi real muloqot darajasini pasaytiradi. Raqamli kommunikatsiya insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yengillashtirsada, chuqur emotsional aloqa kamayib borishi ehtimoli mavjud.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektdan muntazam foydalanish inson tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunday texnologiyalarga haddan ziyod tayanish mustaqil fikrlashni susaytirishi, diqqatni jamlashda qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, insonning sun'iy intellektga emotsional bog'lanib qolishi psixologik qaramlikning kuchayishiga olib keladi. Bu, ayniqsa, yoshlar va o'quvchilar orasida tez-tez kuzatilmoqda. Ilon Maskning fikricha, "Sun'iy intellekt insoniyat sivilizatsiyasi uchun asosiy xavfdir. Sun'iy intellekt mehnat bilan bog'liq ommaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko'ra yaxshiroq



bajara olishadi. Ilg‘or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun‘iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarni ko‘rmay qolishlari mumkin”.

Sun‘iy intellekt rivojlanishi bilan birga etnik va huquqiy muammolar ham paydo bo‘lmoqda. Masalan, sun‘iy intellekt xato qilsa yoki noto‘g‘ri qaror qabul qilsa, javobgarlik kim zimmasiga yuklanadi? Shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligi, sun‘iy intellektning nazoratdan chiqish ehtimoli, uning jamiyatdagi roliga oid savollar bugungi ilmiy muhokamalarning asosiy mavzularidan biridir. Shu jihatdan sun‘iy intellektdan foydalanish jarayonida aniq etik va huquqiy normalarni ishlab chiqish zarurdir.

Sun‘iy intellektga bog‘liq faktlar:

- Xizmati beminnat va vaqt me‘yorlari cheklanmagan;
- Buzilishlarga moslasha oladi;
- Yaratuvchilarining e‘tiqodi va stereotiplarini me‘ros qilib oladi;
- Savollarga javob bera oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sun‘iy intellektning jamiyatda, sanoatda, fanda va inson hayot faoliyatida tutgan o‘rni kattadir. Sun‘iy intellekt zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylanib qoldi. U inson hayotini yengillashtiruvchi kuchli vosita bo‘lishi bilan birga, ijtimoiy va psixologik xavflarni oldini oladi.. Kelajakda inson va sun‘iy intellekt hamkorligining optimal modeli shakllanishi insoniyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘ladi. Prezident farmoniga ko‘ra, 2026-yildan boshlab sun‘iy intellekt orqali zilzilalarni oldindan pragnoz qilish va madaniy meros obyektlari, shuningdek, ko‘priklar va tunnellarining zilzilbardoshligini monitoring qilish tizimi joriy etiladi. Bundan bilsak bo‘ladiki, uning nafaqat zararli, balki foydali tomonlari ham juda ko‘pdir. Shuning uchun insoniyat sun‘iy intellektdan o‘z maqsadlari yo‘lida unumli va maqsadli foydalanishi zarurdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. To‘xtayev A. Sun‘iy intellekt va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2023.
2. Nazarova D. I. Axborot texnologiyalarining psixologik ta‘siri. – Buxoro, 2022.
3. OpenAI. Artificial Intelligence and Society. – 2024.
4. Turonov B. Raqamli tafakkur: yangi davr psixologiyasi. – Samarqand, 2021.
5. O. X. Otaqulov, G. A. Pulatova, G. G. Pulatov. “Sun‘iy intellekt va uning insoniyat faoliyatida tutgan o‘rni”. Maqola. Scientific progress. [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz). Volume 2, ISSUE 8, 929-935-b. 2021-y.
6. <https://gazeta.uz/>
7. <https://prezident.uz/>